

TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATIDA ISLOM XO‘JA- NING MA‘RIFATPARVARLIK G‘OYALARI VA MA‘NAVIY MEROSI

Axtamova Muhayyo Anvar qizi

Pardayeva Farangiz Ahtamjon qizi

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Turizm va mehmondo‘stlik ta’lim yo‘nalishi

2-bosqich talabalari

muhayyoaxtamova0712@gmail.com

pardaevafarangiz6@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola 19—20-asrlar bo‘yida Turkistonda (O‘rta Osiyo) sodir bo‘lgan jadidchilik harakati va uning ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biri Islomxo‘ja faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Shu bilan birga, uning fojiali o‘limi haqidagi ma'lumotlar ham kiritilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi jadidlar davridagi ta’lim-tarbiya islohotlarini tarixiy sharoitda tahlil qilish, Islomxo‘ja merosini o‘rganish, ularning bugungi O‘zbekiston va Markaziy Osiyo ta’lim tizimiga ta’sirini baholashdan iborat.

Kalit so‘zlar: Islomxo‘ja, Jadidchilik harakati, Turkiston jadidlari, Xiva xonligi, Islomxo‘ja minorasi, taraqqiyot vaziri, ma'rifatparvarlik, Asfandiyorxon, ma'naviy uyg'onish.

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuzaga kelgan jadidchilik harakati millatning siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy uyg‘onishiga asos soldi. Turkiston jadidlari — Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ismoil G‘aspirali, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Cho‘lpon, Hamza kabi ko‘plab ma’rifatparvarlar — millatni qoloqlikdan qutqarish uchun kurashganlar. Jadidlar o‘z faoliyati orqali xalqni jaholatdan xalos etish, ilm, ta’lim, adabiyot, san’at, axloq va din asosida yangicha fikrlashga undashni bosh maqsad qilib qo‘ygan edilar. Ular uchun asosiy g‘oya — “Millatni saqlab qolish uchun uni o‘qitish, uyg‘otish, ma’rifatli qilish” edi. Ular xalqni “millat” sifatida uyg‘otish, o‘zligini anglash, milliy qadriyatlarni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg‘unlashtirish g‘oyasini ilgari surdilar. Tarix sahifalarida shunday shaxslar

borki, ular o'z davrining chegaralaridan o'tib, kelajak avlodlarga ibrat bo'lib qoladi. Xiva xonligi tarixida ana shunday siymolardan biri – Islomxo'ja edi. U o'z davrida diniy e'tiqodga sadoqat, xalq farovonligi uchun xizmat va islohotchi g'oyalarning uyg'un namunasini yaratgan arbob sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan.

Bugungi kunda ham “e'tiqod va yangilanish” tushunchalari o'rtasidagi muvozanat dolzarb masalalardan biridir. Dunyoviylik va diniylik o'rtasidagi muvozanatni topa olgan shaxslar jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Islomxo'ja ana shunday shaxslardan bo'lib, u e'tiqodini saqlagan holda, Xiva xonligiga zamonaviy o'zgarishlar kiritgan islohotchi sifatida tarixda nom qoldirdi. Islomxo'ja (1872 — 1913 Xiva) — Xiva xonligining bosh vaziri. Xorazmda jadidchilik harakati o'ng oqimi rahbarlaridan biri. U — Xiva xonligining yirik davlat arbobi, ma'rifatparvar, islohotchi shaxs sifatida tarixda katta iz qoldirgan [6]. U Xiva xonligi davrida yangi usul maktablarini tashkil etish, kutubxonalar ochish, ilm-ma'rifatni targ'ib qilish kabi ishlarga boshchilik qilgan. Uning tashabbusi bilan Xiva va boshqa shaharlarda Islomxo'ja madrasasi va minorasi, Nurullaboy saroyi qurildi, jadid maktablari, hatto rus maktablari ochildi. Islomxo'ja Xivada shahzodaga atab shifoxona tiklagani haqida ham ma'lumotlar uchraydi [1;46]. Islomxo'ja shuningdek, Xivada birinchi pochta va telegraf idorasini tashkil etdi. Bu, o'z navbatida, aloqa va savdo rivojiga katta turtki berdi. Shuningdek, birinchi dorixona va gaz yoqiladigan chiroqlar tizimini joriy etdi. Uning faoliyati Xiva jamiyatini uyg'otdi. Odamlar o'z hayotlarida o'zgarish bo'lishi mumkinligini his qila boshladilar. Shuning uchun ham Islomxo'ja xalq orasida “taraqqiyot vaziri” deb atalgan.

Islomxo'janing nomi bilan bog'liq eng mashhur obida — bu Islomxo'ja minorasi va unga tutash madrasadir. U 1908–1910-yillar oralig'ida qurilgan bo'lib, bugungi kunda ham Xiva shahrining ramziga aylangan. Minoraning qurilishi shunchaki me'moriy hodisa emas edi. Bu, aslida, xalqni ma'naviy uyg'otish va diniy birlik ramzi sifatida bunyod etilgan obida edi. Uning balandligi 57 metr bo'lib, qadimiy va zamonaviy uslublar uyg'unlashgan. Islomxo'ja tomonidan barpo etilgan madrasalar, kutubxonalar, masjidlar va Islomxo'ja minorasi uning ma'rifatparvarlik yo'lidagi fidokorligidan dalolat beradi. Biroq Islomxo'ja islohotlari barcha tomonidan birday qabul qilinmadi. Ayrim eski qarashdagi ulamolar va konservativ kuchlar uning yangiliklariga qarshi chiqdilar. Ularni “dinni buzayapti”,

“g‘arbga ergashyapti” deb aybladilar. Xonlikda Islomxo‘ja ta’siri tufayli yuz berayotgan “uyg‘onish” alomatlaridan sarosimaga tushgan Turkiston hokimi o‘z vakiliga “Xivani tinchitish” vazifasini topshirgan edi [1;57]. “Qabristondan jasadi tanib bo‘lmas darajadagi shaxs topiladi. Uning hashamdor kiyimlari orden, medal, tilla buyumlari Xiva xonining bosh vaziri Islomxo‘ja ekanligini ko‘rsatib turardi” [3] deb yozilgan faktlar uchraydi. Yosh xivaliklar partiyasining asoschisi Polvonniyoz Hoji Yusupovning yozishicha, taraqqiyparvarlik g‘oyalari uchun o‘z kuyovi Asfandiyorxonning buyrug‘i bilan vahshiyona o‘ldirilgan. Ba’zi manbalarda Xiva xoni Asfandiyorxon tomonidan 1913-yil 9-avgustda islohotchilar rahnamolaridan biri, mamlakat bosh vaziri Islomxo‘jani davlat mablag‘larini o‘zlashtirishda ayblab o‘ldirtirganligi haqida ma’lumotlar uchraydi [2;132]. Bu voqea vaziri akbar Islomxo‘janing o‘limi bo‘ldi. Bu oddiy o‘lim emasdi. Bu uzoq yillar qayerlardadir berkinib yotgan o‘lim ajdarhosining nogohoniy hamlasi bo‘ldi [1;66].

Adabiyotlar tahlili. Islomxo‘ja shaxsiyati va uning jadidchilik harakatidagi o‘rni haqida yozilgan manbalar nafaqat tarixiy faktlarni, balki o‘sha davrning ruhini ham ifodalaydi. Tadqiqotlarda Islomxo‘ja siymosi turlicha talqin qilingan bo‘lsa-da, barcha manbalarda u ma’rifat va islohot timsoli sifatida gavdalanadi. Soyibjon Tillaboyev va Akbar Zamonovning “O‘zbekiston tarixi” darsligida [2] esa mualliflar Islomxo‘janing davlat boshqaruvidagi o‘rni, ta’lim tizimiga kiritgan yangiliklari, hamda uning Asfandiyorxon davridagi islohotlari haqida tarixiy dalillarga tayanib, aniq faktlar keltiradilar. Ayniqsa, Xivada pochta va telegraf idoralari, gaz chiroqlari va dorixonalar tashkil etilgani haqidagi ma’lumotlar o‘sha davr uchun katta ijtimoiy sakrash bo‘lganini ko‘rsatadi. Avaz Sotimning “Temurqozi To‘ra” asarida [1] Islomxo‘ja Xiva xonligidagi siyosiy muhitda yangilanish shamolini olib kirgan arbob sifatida tasvirlanadi. Muslim.uz rasmiy sayti [6] va Ziyouz.com kutubxonasidagi ma’lumotlarda [7] esa Islomxo‘ja hayoti va faoliyati zamonaviy nuqtai nazardan yoritilgan. Ayniqsa, Islomxo‘ja minorasining ramziy ma’nosi — ma’naviy uyg‘onish minorasi sifatida talqin qilinadi.

Materialar va uslublar. Ushbu maqolada XIX–XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan jadidchilik harakati va uning yorqin vakili Islomxo‘janing faoliyati tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar hamda internet axborot resurslari asosida o‘rganildi. Ma’lumotlar yordamida Islomxo‘janing shaxsiy g‘oyalari, e’tiqodi va ma’rifiy faoliyati

tahlil qilindi. Bu manbalar yordamida tarixiy voqealarga hozirgi davr nuqtai nazaridan baho berish imkoniyati yaratildi. Islomxo'ja faoliyati faqat Xiva xonligi doirasida emas, balki Turkiston uyg'onish davrining keng jarayoni sifatida talqin qilindi. Tahlil jarayonida olingan ma'lumotlar asosida Islomxo'janing konseptual ahamiyati – ya'ni, uning diniy e'tiqod va dunyoviy yangilanishni uyg'unlashtira olganligi asoslab berildi. Shu bilan birga, u amalga oshirgan islohotlarning bugungi O'zbekiston ta'lim tizimiga va ma'naviy hayotiga ta'siri haqida xulosalar chiqarildi.

Natijalar va munozaralar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Islomxo'ja shaxsi nafaqat Xiva xonligi, balki butun Turkiston jadidchilik tarixining o'ziga xos ramzidir. Islomxo'ja shaxsida e'tiqod, ma'rifat va islohot g'oyalari uyg'unlashgan. Islomxo'janing konseptual ahamiyati faqat mahalliy emas — mintaqaviy uyg'onishning boshlang'ich nuqtasi bo'lgan. U G'aspirali, Behbudiy, Avloniy singari jadidlar bilan bir qatorda, xalqni "ilm bilan ozodlikka" eltgan avlodning bir bo'lagi edi. Uning o'limi jadidchilik harakati uchun zarba bo'lgan bo'lsa-da, g'oyalari to'xtamadi — u ochgan maktablar orqali yangi avlod jadidlar voyaga yetdi. Masalan, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Murod Avazboyev singari yosh xivaliklar keyinchalik o'sha ruhni davom ettirishgan. Bugun ham Islomxo'ja minorasi shunchaki tarixiy yodgorlik emas — u o'z orzularining toshga o'yilgan timsoli. Uning soyasida har kuni yuzlab sayyohlar suratga tushadi, ammo ular bilmasa ham, u minora tagida bir xalqning uyg'onish orzusi yotgan.

Xulosa.

Islomxo'ja ta'lim tizimida yangi usuldagi o'qitish metodlarini joriy etishga harakat qilgan, bu orqali diniy bilim bilan dunyoviy ilmlarni uyg'unlashtirishni maqsad qilgan Islomxo'ja nomi bilan bog'liq obidalar, madrasalar, ko'chalar bugun ham Xivada ehtirom bilan eslanadi. Uning minarasi hamon Xiva osmonida ko'tarilib turibdi — xuddi o'z davrining orzulari singari. Islomxo'janing faoliyatini o'rganish bugungi yoshlar uchun ham katta ahamiyatga ega, chunki u bizga shuni o'rgatadiki — haqiqiy e'tiqod taraqqiyotga to'siq emas, balki uni yorituvchi nurdur. Islomxo'ja jahon xalqlari taraqqiyotidan bir necha asr ortda qolgan, ba'zi sohalarda o'rta asrcha mustabidlik hukm surayotgan Xiva xonligida o'zgarish yasashga urindi va dastlabki natijalarga erishdiki, bular tarix sahifalaridan yorqin joy oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avaz Sotim. “Temurqozi To‘ra” — T.:— “Sharq”, 2006. [46; 57;66].
2. Soyibjon Tillaboyev., Akbar Zamonov. O‘zbekiston tarixi. 9-darslik— “Sharq”, 2019. [132]
3. Umid Bekmuhammad. “Islahotchi Islomxo‘ja va uning sirli o‘limi.” — Xurshid Davron kutubxonasi. —2015.
4. Polvoniyozi Hoji Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi. Urganch “Xorazm”. —1999.
5. Vapayeva Yorqinoy. “Xiva jadidchiligi yangi talqinda’”. — 2023.
6. O‘zbekiston musulmonlar idorasi rasmiy sayti — <https://muslim.uz>
7. Ziyouz.com kutubxonasi
8. inlibrary.uz sayti